



MILLIY KURASH SPORTINING YRT UCHUN AHAMIYATI VA RIVOJLANISH TARIXI

Жўраев С.С.

*Денов тадбиркорлик ва педагогика институти
Жисмоний тарбия ва спорт кафедраси мудири*

Tayanch soʻzlar: kurash sporti, jamiyat, kurashish san'ati, milliy kurash, sportchi, milliy qadriyatlar, sport turi, sog'lom jamiyat.

Ключевые слова: борцовский спорт, общество, боевое искусство, национальная борьба, спортсмен, национальные ценности, спорт, здоровое общество.

Key words: wrestling, sport, society, art of fighting, national wrestling, athlete, national values, healthy society.

O'zbek xalqi boy an'anlariga ega, jahon ma'naviy madaniyatiga alohida hissa qo'shgan xalq bo'lib, uning asrlar osha avloddan –avlodga o'tib kelayotgan milliy kurashi tarixida o'tmish ajdodlarimiz asos solgan milliy qadriyatdir. Milliy kurash vatanparvarlikni, mardlik, jasurlik, qahromonlik g'oyalariga asoslangan tarbiyaviy ahamiyatga ega bo'lgan jismoniy mashqlar ta'sirida shakllangan kurashdir. O'zbek milliy kurashi halollik, poklik, sabr qanoatga tayangan holda, xalqimizning milliy o'zligini, or-nomusini, milliy g'oyani o'zi ichiga olgan chinakam kurash usulidir. Mustaqillik tufayli milliy kurash jahonga yuz tutib, jismoniy chiniqish maktabi sifatida bugungi kunda dunyoga tanilib, yosh barkamol avlodni tarbiyalashda jismoniy mukammallikning asosiy manbai ekanligi tahlil etilgan.

Sportga e'tibor yuksalgan jamiyat sog'lom jamiyat tarzida rivojanadi. Sportning barcha turlari borki, ular shaxsning nafaqat jismoniy barkamolligini, qolaversa ma'naviy rivojlanishiga ham xizmat qiladi. Hususan, kurash sporti milliy qadriyatlar himoyasi bo'lib, o'zida milliy g'urur, iftixor va yorug' kelajakka ishonch tuyg'ularini mustahkamlashni ta'minlaydi. Kurashish san'ati ko'p xalqlarda qadim zamonlardan buyon ma'lum. Bu sport turi belgilangan qoidalar bo'yicha ikki sportchining yakkama-yakka olishuvidir.

Kurash qadimda ayniqsa Yunonistonda keng tarqalib, antik olimpiada musobaqalaridan doimiy o‘rin olgan. Bugungi kunda milliy kurashning xilma-xil shakllari Gretsiya, Italiya, Yaponiya, Turkiya, Eron, Afg‘oniston, Rossiya, O‘zbekiston, Gruziya, Armaniston, Ozarbayjon, Qozog‘iston va boshqa mamlakatlarda mavjud.

Hozirgi kundagi rivojlanishlar xalqimizning an‘analarini, qadriyatlarini tiklab, ularning jahon miqyosida tanilishga imkoniyat yaratdi. Dunyoda vatanparvarlik, insonparvarlik, mardlik, jasurlik, mehnatsevarlik, o‘zarohamkorlik, yon qo‘shnichilik g‘oyalarni amalga oshishida o‘zbek xalqining alohida o‘rni bo‘lib, polvonlar, pahlavonlar vatani deb tan olindi. Milliy kurashda to‘plangan polvonlar o‘z xalqining or-nomusi, milliy g‘ururi, an‘analariga sodiq qolib, ustoz-shogirdlik e‘tiqodlariga amal qilib asrlar osha o‘zbek kurashni jahonga tanilishiga olib keldi. Milliy kurash tufayli xalqimiz farzandlarini yoshligidan boshlab sog‘lom, baquvvat, jussali, mehnatga chidamli qilib tarbiyalab, ularni aqliy jihatdan kamol topishiga, jismoniy chiniqtirishga muntazam e‘tibor berganlar. Chunki o‘zbek xalqining azaldan iligi to‘q, oriyati baland, qaddi alp kelbatli bo‘lib kelgan. Xalqimiz doimo jismoniy barkamollik bilan ma‘naviy komillikni uyg‘un tarzda yuksaltirgan, halollikka, poklikka, oriyat va mardlikka bel bog‘lagan tanti xalq sanaladi. Chunki xalqimiz farzandlarini yoshligidan yuksak fazilatlar ruhida tarbiyalab kelgan.

O‘zbek xalqi qadimdan farzandlarini norg‘ul, alp kelbatli arslon bilakli, shijoatli, o‘ktam o‘tkir nigohli qilib tarbiyalashga bel bog‘lagan xalq. SHu boisdan ham bu xalqdan elning koriga yaragan bahodirlar, yurtning erki uchun ko‘ksi qalqon bo‘lgan mard o‘g‘lonlar, elning orini ko‘targan tanti pahlavonlar ko‘plab yetishib chiqqan. O‘zbek xalqining asrlar davomida shakllanib kelgan an‘anaviy o‘yinlari ham yosh avlodni jismonan yetuk, man‘an barkamol qilib tarbiyalashda muhim ahamiyat kasb etgan, Xalqimizning orasidan ko‘plab bahodirlar, polvonlar, chavandozlar yetishib chiqishida ham xalq o‘yinlarining o‘rni va roli beqiyosdir. Jumladan: “oq suyak”, zuv-zuv, “bobol taka”, “chirkash”, “chillik” “do‘l”, “ganosh”, “poyga” kabi o‘yinlar alohida o‘rin tutadi.

Kurash sport turi bo‘lib belgilangan qoidaga muvofiq ikki polvonning yakkama-yakka olishuvidir. Shu boisdan ham Surxon vohasida kurash musobaqalari “Olish” ham deb atalishi bejiz emas. Kurash insonni ephil, kuchli, chidamli va irodali qilib tarbiyalash vositalaridan biri sanaladi. Kurash azaldan o‘zbek xalqi turmush tarzining uzviy bo‘lagi sifatida shakllangan. Biroq mustabid tuzum xalqimizning ko‘plab qadriyatlari singari kurashning rivojiga ham salbiy ta‘sir ko‘rsatdi. Biroq azaldan mardlikni, jasurlikni qadrlagan,



epchillik, sabr matonat va chidamni o'zining ajralmas mentalitetiga aylantirgan, kurashni "Alining maydoni" deb bilgan, lafzi halol, tanti polvonlarning Alp deb atagan ularni polvon deb siylagan, kurash musobaqalariga butun vujudi bilan shinavanda bo'lgan, halollikni ulug' fazilat deb bilgan haromdan hazar qiladigan, g'irromning yoqtirmaydigan xalqning qalbidan kurashni chiqarib tashlashning imkoni bo'lmadi. Shu boisdan bo'lsa kerak zo'ravon tuzum sharoitida ham xalq polvonlarini unutmadi, to'yi tomoshasi, bayram va sayllari kurash bilan fayz oldi. Yurt beshiklarida bahodirlar, alplar, pahlovonlar, polvonlar ulg'aydi. Zeroki iligi to'q xalqni, imoni but xalqni, diyonati mustahkam xalqni, irodasi baquvvat xalqni, zuvalasi pishiq xalqni, lafzi halol xalqni, o'tmishi uyg'oq xalqni, qaddi baland xalqni, or nomusi ulug' xalqni, oriyati yuksak xalqni hech qanday yot g'oya, yot mafkura, jabr va sitam yenga olmas ekan. O'zbek kurashi ana shunday kurashlarda toblangan, zamon sinovlaridan o'tgan, ne-ne mardlarni, kuragi yerga tegmagan polvonlarni yetishtirib bergan ulug' qadriyat sanaladi.

Kurashning shunchaki sport turigina emas, balki insonning u orqali jamiyatning nafaqat jismoniy, ma'naviy kamolotga erishishida xam salmoqli omil ekanligini inobatga olib, ulug' bobokalonlarimiz uni tarbiya maktabi deb atagan.

Kurash sport turi sifatida juda ko'plab xalqlarda qadim zamonlardan buyon ma'lum bo'lib insoniyat tarixi bilan chambarchas bog'liq. Bundan besh ming yil ilgargi davrga mansub qadimgi Mesopatamiyadan topilgan haykalchalarda kurash tushayotgan polvonlar siymosi tasvirlangan. Kurash musobaqasi Qadimgi Yunonistonda olimpiya o'yinlari orasidan joy olgan beshta bellashuvning biri sanaladi.

Kurashning xilma-xil ko'rinishlari Yunoniston, Italiya, Yaponiya, Turkiya, Eron, Afg'oniston, O'zbekiston, Rossiya, Gruzziya, Armaniston, Ozarbayjon, Qozog'iston va boshqa mamlakatlarda mavjud. Masalan qadimdan yunon-rum kurashi, yaponlarda "dzyu-do", "karate", koreyslarda "taekvando", xitoyda "u-shu" kabi kurash turlari rivojlanib kelgan. Hozirgi kunda esa kurashning 400 dan ortiq usuli bor. Zamonaviy sport kurashning asosiy qoidlari XVIII asr oxiri va XIX asr boshlarida Yevropaning bir necha mamlakatlarida ishlab chiqildi. Xalqaro maydonda sport kurashining yunon-rum kurashi erkin kurash, dzyudo, sambo turlari keng tarqalgan. Mustaqillik tufayli o'zbek milliy kurashi ham alohida sport turi sifatida dunyoda tan olindi. O'zbek milliy kurashning paydo bo'lishi ayrim manbalarga ko'ra uch yarim ming yillik tarixga ega. Bunga misol qilib Qadimgi Baqtriya ya'ni O'zbekistonning janubiy hududlari aynan Surxon vohasidan topilgan jez davriga oid silindirsimon sopol idishda ikki

polvon va ulardan biri ikkinchisini kurash usulida chalayotgani tasvirlangan. SHuningdek, shu davrga oid boshqa bir arxeologik manbada esa polvonlarning kurash usullarini namoyish etayotgani ifodalangan. SHuningdek, miloddan avvalgi III asrga oida haykalchada ikki kurashchi bir-birining belbog'idan ushlab turgani aks ettirilgan.

Yunon muarrixi Klavdiy Elianning ma'lumotiga ko'ra yurtimizda yashagan qadimgi sak qabilalarining qizlari o'zlarining bo'lajak kuyovlari bilan kurash tushib, turmushga chiqqanlar. Xitoyning "Tan-shu" qo'lyozmasida Dovon (Farg'ona) da to'ylar va sayllar kurash musobaqasiz o'tmaganligi bayon etilgan. Tarixi ming yilliklar bilan bellasha oladigan qadimiy eposimiz "Alpomish" dostonida Barchinning shartlarida kurash musobaqasining o'tkazilishi ham milliy kurashimizning xalqimiz turmush tarzining ajralmas uzviy bo'lagiga aylanganligini ko'rishimiz mumkin.

Qadimda va o'rta asrlarda yashab ijod etgan qator olimlar shuning uchun ham kurashga alohida e'tibor qaratganlari bejiz emas. Dastlab kurash aholining an'anaviy bayramlari to'y va hashamlarida yirik jamoatchilik tadbirlarida ko'ngil ochish va dam olish tomoshasi sifatida namoyish etilgan bo'lsa, davrlar o'tishi bilan mustaqil sport turi va chiniqish vositasi usuliga aylandi. SHarqning buyuk mutafakkirlari Ibn Sinoning "Tib qonunlari", Mahmud Qoshg'ariyning "Devoni lug'atit turk", Alisher Navoiyning "Hamsa", "Holati Pahlovon Muhammad", Zayniddin Vosifiyning "Badoe' ul vaqoe'", Husayn Voiz Koshifiyning "Futuvvatnomayi sultoni", Zahiriddin Muhammad Boburning "Boburnoma" asarlarida milliy kurashimiz to'g'risida qimmatli ma'lumotlar berilgan.

Ibn Sino bobomiz yozadi: "Kurash" har xil turlardan iborat bo'lgan. SHulardan bittasi ikki erkak bir-birlarining belbog'larini ushlab o'ziga tortadi va har biri o'z raqibidan qutilishga harakat qiladi. Lekin biri boshqasini quchoqlaydi. Bunda raqibning o'ng qo'li yelka ustidan, chap qo'lini pastdan o'tkazadi. Keyin raqibini o'ziga tortadi. Kurashning yana bir turi bir-biriga oyoq chalish usuli bilan raqibni yiqitishi haqida aytiladi. Mashhur tilshunos olim Mahmud Qoshg'ariy o'zining "Devoni lug'atit-turk" asarida 150 ga yaqin o'yin turlarini tilga olib, shundan 20 ga yaqin o'yinga batafsil to'xtalib ta'rif beradi. Olim o'yin turlari, o'yinlarning yoshga nisbatan taqsimoti, musobaqa shartlari haqida ma'lumot berib, bunday musobaqalarni "bahs" deb ataydi. Jumladan, kurash bahslaridan "bog'dodi", "chalish", "eng silkish", "bo'yin qayirish" turlarini sanab o'tadi.

XV asrning mashhur voizi Husayn Voiz Koshifiy o'zining "Futuvvatnomai sultoni" asarida kurash haqida quyidagilarni yozadi. Husayn Koshifiy tomosha



ko'rsatuvchi pahlavonlarni sakkiz toifaga ajratadi: kurash tushuvchilar, tosh o'ynovchilar, loy, tashuvchilar ("novandozlar"), zambil ko'taruvchilar, dorbozlar, gurzi ko'taruvchilar va zo'rlar. Bilgilki, kurash odamlar ko'p qiziqadigan hamda sultonlar, shohlarga maqbul hunar. Bu ish bilan shug'ullanuvchi kishilar har qanday vaziyatda to'g'rilik va poklik qonuniyati bilan yashaydilar. Agar kurashning ma'nosi nima, deb so'rasalar, javob berib aytginki, buning ma'nosi odamzod xilqatidan kelib chiqadi, chunki odamzod o'z ahloqini o'zgartirib boradi, ya'ni xulq-atvor yaxshilik tomon o'zgarishi kerak va bu so'zning haqiqati shundaki, odamda maqbul va nomaqbul axloqiy sifatlar orasida doimiy kurash boradi, ya'ni har bir sifat o'ziga qarshi sifatni daf' qilish payida bo'ladi. Demak kurash inson xilqatidagi shu xususiyatni ifodalaydi...

Agar kurashda asl mohiyat nima, deb so'rasalar, ushbu hunaring ilmiy deb javob bergil. Agar kuch-quvvat qanaqa narsadir, deb so'rasalar, aytginki, kuch-quvvatning e'tibori yo'q, zero hayvonlarda kuch juda ko'p, ammo ularda ilmu donish (insoniy fazilat) yo'q, shuning uchun ular hurmatga loyiq emaslar.

Agar ilm bilan qo'shilgan kuch qanaqa narsa, deb so'rasalar, bu g'oyat e'tiborli va tahsinga sazovor narsa, deb aytgal. Zero, ulug'lar debdurlarki, "Bilimsiz kuch adli yo'q shohdir, quvvati yo'q ilm esa, adolatli, lekin lashkari yo'q shoh kabidir". Va agar bilim bilan kuch o'zaro muvofiq kelsa, muvaffaqiyatga erishish yo'li ochiqdir.

Agar kurash tushish ilmni yoki amalni, deb so'rasalar, javob berib aytginki, amal bilan zich bog'liq ilmdir. Har kim hayotda nimanidir o'rganadi, biroq unga amal qilmasligi mumkin. Ammo kurash san'atida ilmga amal qilmaslikning iloji yo'q, bas, shunday ekan, bunda bilim va amal bir-birini bezaydi, to'ldiradi, bir-biriga madad beradi.

Agar kurash ustalarining odobi (qoidalari) nechta, deb so'rasalar, o'n ikkita deb aytgil: 1) ustozning o'zi pok ziynat va nuqson-illatsiz odam bo'lsin; 2) shogirdlarini poklikka da'vat etsin; 3) baxil bo'lmasin, shogirdlaridan hech narsani qizg'anmasin; 4) shogirdlariga mehribon bo'lsin, 5) shogirdlar mol-mulkiga ta'magir bo'lmasin; 6) har bir odamni qobiliyatiga qarab ta'lim bersin; 7) firib-nayrang, riyo bilan shug'ullanmasin; 8) o'z shogirdlariga yomonlikni ravo ko'rmasin; 9) shogirdlaridan birortasi yomon kurash tushsa, jerkib tashlamasin, balki muloyimlik bilan tushuntirsin; 10) shogirdiga marakada ta'lim bermoqchi bo'lsa, buni yashirin holatda qilsin, toki dushman xabardor bo'lmasin; 11) dastur bo'ladigan kurash ilmining barcha nozikliklarini mufassal bilishi kerak; 12) hech bir marakada piri va ustozlarini duo bilan xotirga olishni esdan chiqarmasin.

Agar shogirdlar odobi nechta, deb so'rasalar, bu ham o'n ikkita deb aytgil: birinchidan, to'g'ri so'z va to'g'ri fikrli bo'lish; ikkinchidan, taqvoli va yaxshi muomalali bo'lish; uchinchidan, siyrat va surati orasta, yaxshi axloqli bo'lish; to'rtinchidan, pok niyatli bo'lish; beshinchidan, ustozlarining aytganini sidqidildan bajarish; yettinchidan, hech bir odamga hasad qilmaslik; sakkizinchidan, baxil bo'lmaslik va pirga borini bag'ishlash; to'qqizinchidan, boshqa shogirdlar bilan tilda va dilda do'st, ittifoq tutinish; o'ninchi, odamlar ko'nglini topish, ko'ngil gadosi bo'lish; o'n birinchidan, o'z kuchiga mag'rur bo'lmaslik; o'n ikkinchidan, harifning mag'lubiyatidan quvonmaslik.

Agar kimni pahlavon deyish mumkin, deb so'rasalar, javob berib aytki, birinchidan, baquvvat, jussa-gavdali; ikkinchidan, shirin tilli; uchinchidan, qo'rqmas yurakli; to'rtinchidan, yetuk aqlli; beshinchidan, sabrli; oltinchidan, barkamol ilmi; yettinchidan, doimiy jiddu-jahd qiluvchi, ya'ni harakatchan, xush axloq, haromdan hazar qiluvchi, saxiy, noz-ne'mat dasturxonini ochiq odam pahlavonlik nomiga sazovor kishidir.

Agar kurashning qanday turlari bor, deb so'rasalar, ikki xil turi bor, deb aytgil: birinchisi—qabz, ya'ni qo'l bilan ushlab, ikkinchisi—iztiror, ya'ni ixtiyorsiz holda olishish. Agar bularning har biri qaysi yurtlarda qo'llaniladi, deb so'rasalar, aytgil: qo'l ushlab kurash tushish (qabz usuli) Xuroson va Iroq aholisiga xos, uni shahrivar ham, deb aytadilar. Iztiror usulida kurash tushish (erkin kurash) Gilon, Shirvon va Ozarboyjonning ba'zi joylarida tarqalgan va uni daylamor ham deydilar.

Agar kurashchilarning tili nima, deb so'rasalar, qo'l deb javob bergil. Ya'ni, qo'lni pastga tushurib, qarsak chalmaguncha kurashga tushmaydilar. Agar qo'lni tushurib qarsak chalishning turlari nechta, deb so'rasalar, ikkita deb aytgil: birinchisi, kurash tushishdan oldin qarsak chalish va buni jang nog'orasi, deydilar, qarshi tomon, ya'ni raqib qarsak chalmaguncha kurashni boshlash qoidadan emas. Ikkinchisi, kurash o'rtasida qarsak chalish. Bu taslim nishonasi bo'lib, yengilgan tomon sulh va omonlik tilaydi. Ya'ni, agar raqib qurash o'rtasida qarsak chalsa, g'alabangni tan oldim, kurashni to'xtataman, sen ham qarsak chalib, kurashni to'xtatish mumkin, degan ma'noni bildiradi.

Agar kurashchilarning oxirgi maqsadi nima, deb so'rasalar, raqib orqasini yerga tegizish, deb ayt.

Agar qurashning onasi qaysi, deb so'rasalar, qo'lning orqasini ushlab, deb aytgil. Chunki qo'lning orqasini ushlagan kishi hamma a'zolarga qo'l tekiza oladi (boshga ham, oyoqqa ham, belga ham).



avlodlarmiz bo'lgan momolarimizning kurash an'analarni qayta tiklanishiga imkoniyat berdi. O'zbek milliy kurashi barkamol avlodni jismonan kamol topishda, mard, jasur bo'lib voyaga yetishida muhim vosita bo'lib kelmoqda.

Adabiyotlar:

1. Azizov N.X. Belbog'li Turkiston kurashi. – T.: “O'qituvchi”.1998 7-bet.
2. To'raev.P., Salimov.O'. Kurash-jahon sportchilari bahsig'a aylangan sport turi.- Termiz.2013."O'zbekistonda ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayot: transformatsion jarayonlar // Respublika ilmiy-amaliy anjumani ilmiy maqolalar to'plami. 601-bet.
3. O'zbek kurashi dovrug'i. - Toshkent, 2002. - B. 5.
4. Mirzanov Sh.S. The priority of developing strength in belt wrestlers using isokinetic exercises and the methodology of its assessment. Monograph., T.; publisher name. 2021, – 164 p.
5. Arikov Z.S. The ability to maintain balance under the influence of static and dynamic movements in highly skilled belt wrestlers. Science and sport No. 3.2018, - 60-62 p.
6. M.A.Pravdov., Chelshev N.N., Bubochkin B.P., Bazhenov Y.I. Physical training of young athletes involved in belt wrestling. Modern studies of social problems (electronic scientific journal), No. 1 (21), 2013, - 37-49 p.

РЕЗЮМЕ

Ushbu maqolada kurash sportining jamiyat uchun ahamiyati va uning shakllanish tarixi haqida so'z yuritilgan. Sportga e'tibor yuksalgan jamiyat sog'lom jamiyat tarzida rivojlanadi. Sportning barcha turlari borki, ular shaxsning nafaqat jismoniy barkamolligini, qolaversa ma'naviy rivojlanishiga ham xizmat qiladi.

РЕЗЮМЕ

В данной статье говорится о значении борьбы для общества и истории ее становления. Общество с повышенным вниманием к спорту развивается в стиле здорового общества. Существуют все виды спорта, которые служат не только физической подготовке, но и духовному развитию человека.

SUMMARY

This article talks about the importance of struggle for society and the history of its formation. A society with increased attention to sports develops in the style of a healthy society. There are all kinds of sports that serve not only physical training, but also the spiritual development of a person.